

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 45 540,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 8,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 114,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	36 777,2	45 540,0	108,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 159,9	44 794,2	108,2
mahsulotlarga sof soliqlar	617,3	745,8	111,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	36 159,9	44 794,2	108,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 835,3	12 189,1	105,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 452,7	10 529,2	110,1
sanoat	6 399,8	7 021,2	108,7
qurilish	3 052,9	3 508,0	113,2
xizmatlar	18 871,9	22 075,9	108,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7 775,4	9 269,9	113,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 271,3	2 823,1	116,8
boshqa xizmat tarmoqlari	8 825,2	9 982,9	102,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 221,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,4 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	98,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	1,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21,7	27,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,1	23,5
sanoat	17,7	15,7
qurilish	8,4	7,8
xizmatlar	52,2	49,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	21,5	20,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	6,3
boshqa xizmat tarmoqlari	24,4	22,3




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,6 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 27,2 % ni, sanoat tarmog'i 15,7 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 49,3 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2025 - yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,4 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 3,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 27,2 %), sanoatda – 108,7 % (15,7 %), qurilishda – 113,2 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (49,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,9 % (25,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,8 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (27,2 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlariga nisbatan 114,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 148,2 % va xizmatlar sohasida – 107,7 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 32 572,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 25 643,8 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 72,7 % ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

25 643,8

70,9 %

2026- yil

35 672,9

72,7 %

